XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-3-025-5-0-K/24 Navoiy viloyati

Navoiy viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 16^2, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikaning 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 25-dekabrdagi 01/51-1-26815-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuni ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O‘RQ-1011-sonli Qonuniga (keyingi o‘rinlarda - Qonun deb ataladi) muvofiq, Navoiy viloyati viloyat mahalliy budjetining 2025-yil uchun budjet daromadlari 3 384,2 mlrd. so‘m, xarajatlari 3 476,7 mlrd. so‘m, respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 92,5 mlrd. so‘m shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar 92,5 mlrd. so‘m etib belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2025-yil uchun Navoiy viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va 2026-2027-yillarga maqsadli mo‘ljallar **1-ilova**ga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

Navoiy viloyatining viloyat budjeti daromadlarining soliq turlari kesimida 2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **2-ilova**ga muvofiq;

2025-yilgi viloyat mahalliy budjetidan budjet tashkilotlari va mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **3-ilova**ga muvofiq;

2025-yil uchun tumanlar va shaharlar budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari **4-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Navoiy viloyati bo‘yicha G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

5. Shahar va tumanlar mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi shuningdek, respublika budjetidan (aksiz solig‘i tushumlari hisobidan) hamda viloyat budjetidan tuman va shahar mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari **5-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. 2025-yil uchun viloyatning viloyat budjeti zahira jamg‘armasi hajmlari 15,7 mlrd. so‘m miqdorida belgilansin.

Tumanlar va shaharlar budjetlarining 2025-yil uchun zahira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Bunda davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari joriy etilgan hududlarda tegishli tumanlar va shaharlar budjetlarining zaxira jamg‘armalari ushbu mexanizmlar joriy etilgan yildan oldingi yildagi hajmdan kam bo‘lmagan miqdorlarda shakllantiriladi hamda qo‘shimcha mablag‘larni shakllantirish tegishincha yuqori turuvchi budjetlarning zaxira jamg‘armalari mablag‘larini kamaytirish hisobiga amalga oshiriladi.

Belgilab qo‘yilsinki, Navoiy viloyati viloyat budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarini ijro etish chog‘ida yuqori turuvchi budjetdan ajratiladigan budjetlararo transfertlarning miqdorlari oshgan taqdirda, tegishli budjetlarining zaxira jamg‘armalarining tegishli miqdorlari qayta ko‘rib chiqilmaydi.

Navoiy viloyati mahalliy budjeti hamda shahar va tumanlari budjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori **6-ilova**ga muvofiq belgilansin.

7. Qonun bilan 2025-yilda xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

8. 2025-yilda quyidagi soliq turlari:

a) <u>tuman (shahar) budjetlariga to‘liq hajmda o‘tkaziladi</u>:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan, jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, bunda yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i, bunda yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno;

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

Bunda, tuman (shahar) budjetlarining daromadlari xarajatlaridan ko‘p bo‘lgan taqdirda xalq deputatlari viloyat Kengashi yuqori turuvchi budjetlarga ajratmalarni nazarda tutishi mumkin.

b) viloyatning viloyat budjeti daromadlari viloyat mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

tamaki mahsulotlari (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar, tegishincha o‘tgan moliya yilining 1-iyul holatiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan olingan Navoiy viloyati aholisining soni tuman va shaharlar aholi soni ulushiga muvofiq. Bunda daromadlar Navoiy viloyatining viloyat budjeti bo‘yicha prognozning bajarilmagan qismi respublika budjeti mablag‘lari hisobidan qoplanishi, daromadlar bo‘yicha prognozning oshirib bajarilgan qismi esa respublika budjeti ixtiyorida qolishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

v) soliqlar viloyat mahalliy budjetiga quyidagi ulushlarda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushgan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) Navoiy viloyati budjeti ixtiyorida 66 foiz qolishi;

foyda solig‘idan tushgan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaidan ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) Navoiy viloyati budjeti ixtiyorida 70 foiz qolishi;

alkogol mahsulotlari, shu jumladan, piva (import orqali kirgan alkogol mahsulotlari va pivadan tashqari) uchun ishlab chiqaruvchi tomonidan to‘lanadigan aksiz solig‘ining 30 foizi o‘tkazilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

g) qonunchilikda belgilangan miqdorlarda quyidagi daromadlar respublika va viloyat mahalliy budjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

davlat bojlari;

jarimalar;

yig‘imlar;

davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar;

Qonunchilikda belgilangan tartibda davlat aktivlarini sotishdan tushadigan tushumlar tegishli ravishda ob’ekt joylashgan tuman (shahar) mahalliy budjetilariga va viloyat budjetiga teng ulushlarda taqsimlanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlarining kamida 50 foizi (bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno) tuman va shaharlar mahalliy budjetlariga o‘tkaziladi.

9. Navoiy viloyat xalq deputatlari Kengashi:

- tegishli darajadagi mahalliy budjetlarga ajratiladigan soliqlarni va boshqa turdagi daromadlarni hamda budjetlararo transfertlarni taqsimlashga;

- daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olingan mablag‘larning bir qismini tumanlar va shaharlar budjetlariga hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun berilishga;

- Qonunning 8-ilovasi 1-bandida belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga nisbatan tumanlar va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab 2,0 gacha oshiruvchi koeffitsientni joriy etishga;

- xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tuman hamda shaharlarning ommaviy dam olishga va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarda mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o‘sib boruvchi koeffitsentlarni joriy etishga haqliligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Qonunga muvofiq berilgan vakolatlardan kelib chiqib:

- viloyat mahalliy budjetiga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushgan tushumlarning *(jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari)* 66 foiz miqdoridagi ulushiviloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida Karmana tumaniga 5 foiz, Navoiy shahriga 8 foiz, Qiziltepa tumaniga 56 foiz, Zarafshon, G‘ozg‘on shahlariga, Uchquduq, Konimex, Navbahor, Nurota, Tomdi va Xatirchi tumanilariga 50 foiz miqdorida *(yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno)* budjetga taqsimlansin.

- Navoiy shahar va Karmana tumani mahalliy budjetlari daromadlari xarajatlaridan yuqori bo‘lganligini inobatga olib, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushgan tushumlarning qolgan qismi viloyat budjetiga o‘tkazilsin.

- Tomdi tumanida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq mahalliy budjet daromadining xarajatidan yuqori bo‘lganligini inobatga olib, ushbu soliq tushumining 68 foizi Tomdi tumani mahalliy budjetiga, 32 foizi viloyat budjetiga *(yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar)* o‘tkazilsin.

- 2025-yilda transfertdan chiqarish uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i bo‘yicha to‘lovning 98 foizi Qiziltepa tumaniga va 100 foizi Xatirchi tumaniga o‘tkazilsin.

- soliqsiz va boshqa daromad to‘lovlari viloyat budjeti ixtiyorida qoldirilsin.

10. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (R. Sulaymonov), viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (G‘. Boboqulov), soliq boshqarmasi (S. Nazarov) tuman (shahar) hokimliklari hamda mas’ul boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarini rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjetining prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

11. Viloyat soliq boshqarmasi (S. Nazarov)ga:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirilishini;

barcha soliq turlaridan doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralari ko‘rilishini;

Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi bilan birgalikda viloyatda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarning to‘liq hisoblanishini;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazorati o‘rnatilishini hamda kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazilishini ta’minlash topshirilsin.

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsin.

12. Viloyat soliq boshqarmasi (S. Nazarov) Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi Navoiy mintaqaviy inspeksiyasi hamda tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirish ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy

budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheyderlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

13. Majburiy ijro byurosi Navoiy viloyat boshqarmasi viloyat soliq boshqarmasi bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlarni ko‘rib borsin.

14. Tuman va shahar hokimliklari jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

15. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi (N. Atajanov) Bo‘sh turgan obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi (A. Sharipov) bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini "e-auksion" elektron savdo platformasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish choralarini ko‘rsin.

16. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi (N. Atajanov), viloyat soliq boshqarmasi (S. Nazarov), viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (G‘. Boboqulov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2025-yilning 1-iyuliga qadar 2024-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2025-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

17. Viloyat soliq boshqarmasi (S. Nazarov), Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi (A. Muhamadiyev) tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

18. Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (O. Sadinov), viloyat soliq boshqarmasi (S. Nazarov) tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borilishini ta’minlasin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

19. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (A.Tasbayev), viloyat yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

20. Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi (N.Toshev) viloyat maktabgacha va maktab ta’limi hamda sog‘liqni saqlash boshqarmalarining ichki audit xizmatlari bilan birgalikda:

budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirsin;

budjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har chorak yakuni bilan xalq deputatlari viloyat Kengashiga axborot kiritib borsin.

O‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti har chorakda eshitib borilsin.

21. Xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflar asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qarori loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga, natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishiga hamda ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

22. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (R. Sulaymonov), xalq deputatlari viloyati Kengashi kotibiyati, tuman va shahar hokimliklari, tegishli boshqarma boshliqlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

23. Viloyat hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

24. Mazkur qaror “Do‘stlik bayrog‘i” va “Знамя дружбы” gazetalarida rasmiy e’lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

25. Ushbu qaror 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

26. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va viloyat hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



ALIYEV G‘OFIR QUVATOVICH

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-025-5-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2025-yil uchun Navoiy viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va 2026-2027-yillarga maqsadli mo‘ljallari

T/r	Ko‘rsatkichlar	2025-yil uchun prognoz	Mo‘ljal	
			2026-yil	2027-yil
1	Yalpi hududiy maxsulot, trln. so‘mda	114,1	130,6	149,1
2	Yalpi hududiy maxsulotning o‘sish sur’ati, foizda	105,4	105,7	106,2
3	Sanoat maxsulotning o‘sish sura’ti, foizda	105,1	105,4	106,2
4	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sura’ti, foizda	103,4	103,5	103,6
5	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	110,3	111,2	112,1

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-025-5-0-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Navoiy viloyatining viloyat budjeti daromadlarining soliq turlari kesimida 2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘m

T/r	**Daromad turlari**	**Daromad** *(mahalliy)*
JAMI		**2 449 220 072**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	153 479 200
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 301 039 530
3	Aksiz solig‘i, jami (*benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq*)	149 291 940
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	382 865 000
5	Yuridik shaxslar yer solig‘i	223 300 000
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	18 641 280
7	Davlat boji	75 399 000
8	Jarimalar	72 433 000
9	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	8 647 122
10	Yig‘imlar	64 124 000

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-025-5-0-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yilgi viloyat mahalliy budjetidan budjet tashkilotlari va mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘m

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**2 541 733 072**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 245 539 307**
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	**27 441 000**
	Tuman va shahar mahalliy budjetlariga transfertlar	**268 752 765**
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi**	**130 437 331**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	130 437 331
	shundan:	
	"Yoshlik" sport markazi xarajatlari	447 446
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2	**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi**	**102 030 390**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	102 030 390
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Sog‘liqni saqlash boshqarmasi**	**127 670 188**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	113 370 188
	shundan:	
	Sog‘liqni saqlash boshqarmasi markaziy apparati	4 105 120
	Respublika o‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi filiali	2 012 012
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	14 300 000
4	**Madaniyat boshqarmasi**	**43 078 172**

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	43 078 172
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Yoshlar siyosati va sport bosh boshqarmasi**	**72 517 068**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	72 517 068
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi tashkilotlar**	**37 464 162**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	37 464 162
	shundan:	
	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi	4 718 452
	Hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq ovqat xavfsizligi davlat markazi	2 517 137
	Chigirtka va tut parvonasiga qarshi kurashish xizmati	2 461 038
	Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish hududiy bo‘limi	307 250
	Agrosanoat majmui ustidan nazorat kilish inspesiyasi Navoiy viloyati boshqarmasi	7 003 683
	O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi	10 347 143
	Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi	10 109 459
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari**	**60 199 911**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	43 468 911
	Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	12 100 000
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	4 631 000
8	**Transport boshqarmasi**	**1 557 758**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 557 758
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Ekologiya-atrof muhitni muxofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tashkilotlari**	**39 519 472**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	39 519 472
	shundan:	

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
	Davlat o‘rmon va ov xo‘jaligi tashkilotlari	25 380 113
	Turizim va madaniy meros boshqarmasi	2 113 395
	Ekologiya-atrof muhitni muxofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi	12 025 964
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Investitsiyalar bosh boshqarmasi**	**8 278 530**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 278 530
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11	**Ko‘p kavrtirali uylardagi liftlarni ta’mirlash va yangilash xarajatlari**	**2 202 000**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 202 000
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**Davlat aktivlarini boshqarish agentligi**	**1 305 110**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 305 110
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi**	**6 825 189**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 825 189
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	**Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi**	**11 153 112**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11 153 112
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15	**Adliya vazirligi tizimidagi tashkilotlar**	**13 314 531**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	13 314 531
	shundan:	
	Adliya boshqarmasi	6 692 060
	FXDYo	2 085 101
	Arxiv ishlari boshqarmasi	4 537 370
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va	

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
	jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
16	**Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimidagi tashkilotlar**	**1 400 506 154**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 400 506 154
	shundan: saqlash xarajatlariga	
	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi	9 719 227
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	2 310 000
	Advokatlar ko‘rsatgan yuridik xizmat	2 000 000
	Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari	8 969 611
	G‘aznachilik xizmati qo‘mitasining hududiy boshqarmasi	8 772 104
	Kadastr agentligi Navoiy viloyati boshqarmasini saqlash xarajatlari	2 309 030
	Budjet tashqari Pensiya jamg‘armasi hududiy boshqarmasi xodimlarining malakasini oshirish o‘quv kursi	37 656
	Tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga o‘tkaziladigan transfertlar	1 366 388 526
	Tuman va shahar mahalliy budjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	268 752 765
17	**Hokimlik**	**39 983 273**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**31 473 273**
	Hokimlikni saqlash xarajatlari	9 289 919
	Xalq deputatlari viloyan Kengashi kotibiyati	592 628
	Hokimlikning zahira jamg‘armalari	15 700 036
	Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish o‘quv kursi	445 792
	Hokimlik ijtimoiy moslashish markazi bo‘limlari	1 225 259
	Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi	4 219 639
	Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari	8 939 640
	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi	619 422
	Axborot-kutubxona markazlari	2 618 950
	Avtobus yo‘nalishlarini subsidiyalash	1 076 400
	Issiqlik ta’minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	4 000 000
	Issiqlik ta’minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari	60 101 000
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	8 510 000
18	**Soliq boshqarmasi**	**70 235 389**

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	70 235 389
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
19	**Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi**	**1 699 573**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 699 573
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
20	**Oila va xotin qizlar boshqarmasi**	**7 649 129**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 649 129
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
21	**Yoshlar ishlari agentligi boshqarmasi**	**3 265 453**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 265 453
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
22	**Mana’viyat va ma’rifat bo‘limi**	**2 877 950**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 877 950
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
23	**Boshqa tashkilotlar**	**11 855 050**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11 855 050
	shundan:	
	Chavandozlar maktabi	2 379 941
	Mudofaa ishlari boshqarmasi	3 359 219
	Ichki ishlar boshqarmasi	4 493 600
	Zaxira omborxanisi	1 622 290
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-025-5-0-K/24 -son qaroriga
4-ilova

2025-yil uchun tumanlar va shaharlar budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari

Foiz hisobida

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i		Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i		Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq		Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	
		MRI	DSB + DSI	MRI	DSB + DSI	MRI	DSB + DSI	MRI	DSB + DSI	MRI	DSB + DSI
1	Zarafshon shahar	0	50	0	0	0	100	0	100	100	100
2	Qiziltepa tumani	0	56	0	98	0	100	0	100	100	100
3	Navbahor tumani	0	50	0	0	0	100	0	100	100	100
4	Navoiy shahar	0	8	0	0	0	100	0	100	100	100
5	Nurota tumani	0	50	0	0	0	100	0	100	100	100
6	Konimex tumani	0	50	0	0	0	100	0	100	100	100
7	Tomdi tumani	0	50	0	0	0	100	0	100	68	100
8	Xatirchi tumani	0	50	0	100	0	100	0	100	100	100
9	Uchquduq tumani	0	50	0	0	0	100	0	100	100	100
10	Karmana tumani	0	5	0	0	0	100	0	100	100	100
11	G‘azg‘on shahar	0	50	0	0	0	100	0	100	100	100

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-025-5-0-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Shahar va tumanlar mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi shuningdek, respublika budjetidan (aksiz solig‘i tushumlari hisobidan) hamda viloyat budjetidan tuman va shahar mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Hududlar nomi		**Mahalliy budjetlarning jami daromadlar**	*shundan*		**Mahalliy budjet xarajatlari**
			Mahalliy budjet daromadlari	**Tartibga soluvchi transfertlar miqdori**	
JAMI:		**3 476 669 722**	**3 384 156 722**	**92 513 000**	**3 476 669 722**
1	Viloyat budjeti	2 272 980 307	2 449 220 072	-176 239 765	2 272 980 307
2	Navoiy shahar	176 612 040	176 612 040		176 612 040
3	Zarafshon shahar	125 781 088	71 469 000	54 312 088	125 781 088
4	G‘ozg‘on shahar	45 611 657	8 593 500	37 018 157	45 611 657
5	Uchquduq tuman	95 657 079	52 084 000	43 573 079	95 657 079
6	Karmana tuman	108 850 050	108 850 050		108 850 050
7	Konimex tuman	88 680 271	48 452 400	40 227 871	88 680 271
8	Qiziltepa tuman	138 638 940	138 638 940		138 638 940
9	Navbahor tuman	117 708 499	75 855 700	41 852 799	117 708 499
10	Nurota tuman	102 683 771	50 915 000	51 768 771	102 683 771
11	Tomdi tuman	61 190 220	61 190 220		61 190 220
12	Xatirchi tuman	142 275 800	142 275 800		142 275 800

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-025-5-0-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Navoiy viloyati mahalliy budjeti hamda shahar va tumanlari budjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hududlar nomi	miqdor
	JAMI	**13 500 000**
1	Viloyat budjeti	6 645 543
2	Navoiy shahri	1 115 369
3	Zarafshon shahri	925 027
4	G‘azg‘on shahri	83 181
5	Uchquduq tumani	593 720
6	Karmana tumani	770 663
7	Konimex tumani	347 749
8	Qiziltepa tumani	913 788
9	Navbahor tumani	711 361
10	Nurota tumani	436 704
11	Tomdi tumani	240 813
12	Xatirchi tumani	716 082